



---

## TIL O'RGANISHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

---

*Abdug'afforov Ulug'bek Murodjon o'g'li*  
*student, SamSIFL*

**Annotatsiya:** ushbu maqola orqali bugungi kunda til o'rganish qanchalik muhimligi va uning ahamiyatlari haqida shu bilan birga, yangi tillar o'rganish bizga qanday imkoniyatlar eshigini ochishi haqida bilib olishimiz mumkin. Eng muhimi til o'rganish bilan xalqaro maydonlarga chiqish haqida ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** til o'rganish, muvaffaqiyatga erishish, ilovalar, Ingliz tili.

**Abstract:** through this article, we can learn about the importance of language learning today and its importance, as well as the opportunities that learning new languages can open for us. The most important thing is that by learning a language, you can get information about going to international arenas.

**Keywords:** language learning, success, applications, English.

**Аннотация:** благодаря этой статье мы можем узнать о важности изучения языка сегодня и его важности, а также о возможностях, которые может открыть для нас изучение новых языков. Самое главное, что, изучая язык, можно получить информацию о выходе на международные арены.

**Ключевые слова:** изучение языка, успех, приложения, английский язык.

Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tili o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. Hozirgi kunda ko'pchilik yoshlar til o'rganmoqda. Til o'rganish juda ham foydali mashg'ulot. Inson qancha ko'p til o'rgansa shuncha ko'p imkoniyatlar bo'ladi va boshqa millat vakillari bilan muloqot qila oladi. Til o'rgansangiz o'zingiz uchun ham foydalidir. Hozirda har bir inson kamida 2 yoki 3 ta tilni biladi. Asosan o'smirlar ingliz tilini puxta o'rganmoqdalar. Kimdur o'zi uchun, kimdur kelajakda foydasi tegishi uchun, yana kimdur davlat imtihonlari yoki xalqaro sertifikatlar uchun o'qiydi. Har bitta til o'zgacha. Ularning harflari tovushlari bir biridan tubdan farq qiladi. Albatta, hammasini o'rganishda qiyinchiliklar to'siqlar bo'ladi. Ammo shuni unutmangki, siz qanchalik ko'p mashaqqat cheksangiz kelajakda albatta uning mevasini ko'rasiz. Bugungi kunda ingliz tili yoshlar o'rtasida ommalashgan til darajasiga ko'tarilgan. Eng muhimi ingliz tili o'rganishni xohlovchilar soni kundan kunga ortib bormoqda. Shuning uchun ham eng keng tarqalgan til bu shubhasiz ingliz tilidir. U ko'p joylarda asqotadi. Ingliz tilini o'rganish sizga ishga joylashishda yordam beradi. Ingliz tilini o'rganish yangi



odamlar bilan tanishishga yordam beradi. Bu fakt, chunki ingliz tili 53 ta mamlakatning rasmiy tili hisoblanadi. Ko'p ilmiy ishlar, qo'yozmalar, asarlar va maqolalar ingliz tilida yozilgan. Ingliz tili-internet tili. Internetdagi tarkibning yarmidan ko'pi ingliz tilida yozilgan. Ingliz tilida juda ko'p filmlar, telehoular va mashhur qo'shiqlar yozilgan. Ko'ryapsizmi, ingliz tilini bilmasangiz bularning barida yutqazasiz. Shuning uchun til o'rganishga tezroq shoshiling. Aqlingizni "Qila olmayman" degan so'zlardan tozalang. Siz buni albatta uddalaysiz. Urinib ko'rmasdan avval befoyda demang. Sizni qo'lingizdan keladi. Siz bu hayotga bejizga kelmaganingizni isbotlang. Hammani o'z mahoratingiz bilan lol qoldiring. Tafakkuringiz ularnikidan ham yaxshiroq ekanligini ko'rsating.

Deyarli barchadan IELTS nima deb so'rasangiz biladi va shunga qiziqishini u ham kelajakda yuqori natija olishni xohlayotganini aytadi. Bu juda yaxshi holat chunki yildan yilga bilim olishga va til o'rganishga qiziquvchan yoshlarimiz ko'payib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Til o'rganish biz uchun keng imkoniyatlar kaliti. Biz til o'rganish orqali o'zimiz bilmagan holatda o'zimiz uchun ko'plab eshiklarni ochgan bo'lamiz. Bugungi kunda biror narsani o'rganish uchun faqat xohish bo'lsa kifoya hisoblanadi. Chunki biror bir horijiy tilni o'qituvchiga bormasdan turib ham ijtimoiy tarmoqlar orqali ham o'rgansak bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda native speakerlar bilan gaplashish orqali va ko'plab til o'rganishga yordam beradigan applar orqali siz o'z bilimlaringizni mustahkamlab olishlaringiz mumkin bo'ladi. Agar o'zingiz biror narsani o'rganishni chin dildan harakat qilsangiz albatta o'rgana olasiz, barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Bugungi kunda tilni tez va oson o'rganishga yordam beradigan applar ko'p. biz hozir sizlarga eng yaxshi va samarali applardan misollar keltiramiz:

#### 1. By talk

Bu programma ingliz tilini o'rganish uchun juda yaxshi hisoblanadi va siz hattoki bu orqali native speakerlar orqali muloqat qilishungiz va shu orqali speaking va pronunciation ni oshirishingiz mumkin bo'ladi.

#### 2. Dualingo

Ilova kuniga bir necha daqiqa sarflash orqali ingliz tilini o'yin shaklida o'rgatadi. Oldin oddiy fe'llar va iboralardan boshlaysiz, sekinlik bilan mashqlar grammatikaga asoslanib boradi.

#### 3. BBC learning English

Ushbu dastur BBC'ning rasmiy ilovasi bo'lib, unda ingliz tilini o'rganish uchun radio va turli eshittirish korporatsiyalarining teledasturlarida chiqqan materiallar yig'ilgan. Audiokontentdan tashqari, grammatikani o'rganish, iboralar tuzish va yangi so'zlarni o'zlashtirish imkonini beruvchi turli xil mashqlar mavjud.

Biz sizga til o'rganishning samaralari haqida aytib o'tamiz:

1. Yangi tajribalar o'rganish (tillar kabi) aqliy sog'lomlik uchun foydali deb topilgan; nerv sistemalarini yaxshilaydi va o'zingizga bo'lgan ishonchning ortishiga sabab bo'ladi.



2. Bu dunyo bo'ylab yangi do'stlar orttirishning eng yaxshi yo'li.

3. Professional xalqaro aloqalar sizning kariyerangiz asosisidir.

4. Tillarni o'rganish va boshqa madaniyatlar bilan aloqada bo'lish dunyoga ko'proq ishonch va ochiq fikrga ega bo'lishga yordam beradi. Aslida, dunyoning uzoq burchaklaridan kelgan yoshlar orasida o'zlarining "qabilalari" ni topishi mumkin bo'lgan insonlar uchun juda muhimdir. Bu yanada tinch, bog'langan dunyoga hissa qo'shishi orqali muloqotning haqiqiy to'siqlarini bartaraf etadi va bizni boshqalar bilan haqiqatan ham bog'laydi.

5. Bir nechta tillarni o'rganish, ayniqsa, ta'limni siz yoshlikdan boshlasangiz, bu jarayonda miya faoliyati ichki ziddiyatlarni boshqarish va qarorlar qabul qilishda faollik ko'rsatadi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki tilli odamlar yaxshi multitaskerlar(bir necha muammoni tezlik bilan yechuvchi)dir!

6. Ikki va undan ko'p tilni o'rganish salohiyatiga ega insonlar boshqalardan ko'ra ko'proq pul topishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til o'rganish va bilish muvaffaqiyatning asosiy klitidir. Siz til bilish va doimiy o'z ustingizda ishlash orqali o'z kelajakingiz qurayotgan bo'lasiz va xalqaro maydonlarda o'zingiz va yurtimiz uchun keng imkoniyatlar yaratasisiz. Har doim harakatda bo'ling hech qachon harakatdan to'xtamang. Albatta, bir kun o'z harakatlaringiz mevasini olasizlar. Zero, harakat bu muvaffaqiyat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://medium.com/@fotimaabdulaminova/til-organish-kaliti-12a90affbca8>
2. <https://www.terabayt.uz/uz/post/ingliz-tilini-organish-uchun-15-ta-eng-yaxshi-ilova>
3. <https://fledu.uz/uz/til-organishning-dunyoni-va-hayotingizni-ozgartiradigan-20-usuli/>